

BOSHLANG'ICH SINFLARDA SIFAT SO'Z TURKUMINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN SAMARALI METODLAR

Muxtorova Munisaxon Anvarjon qizi

Qo'qon Universiteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 3-23 guruh talabasi

e-mail: mukhtorova54@gmail.com

Tel: +998 91 742-13-79

Annottatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining o'qitilishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga sifat so'z turkumini o'qitishning ahamiyati va bu orqali o'quvchilarda qanday ko'nikma hosil bo'lishi haqida hamda o'quvchilarning sifat haqida dastlabki, mukammal bilim olishlari uchun turli xil metodlar haqida ham ma'lumot keltirilgan. Sifat so'z turkumini boshlang'ich sinflarda o'qitishda asosan, o'yinlar orqali yondashilsa, kutilgandan ko'proq natija beradi. Bu borada metodlarga o'qituvchi tomonidan dars holatidan va vaqtni inobatga olgan holda, o'zgartirishlar kiritib, darsga moslab olishi ham mumkin. Albatta bu jarayon berilgan mavzuga mos va o'qitilishi oson bo'lishi lozim. Shu bilan birgalikda sifat so'z turkumi maqollarda uchragan holatlari ham tahlil qilingani maqolaning yangi metod yaratilganidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: O'quvchi, o'qituvchi, sifat, so'z turkumi, metod, sifat, boshlang'ich ta'lim, bilim, boshlang'ich sinf, dars, belgi.

Kirish.

Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi asosiy o'ringa qo'yilmoqda. Yosh avlodni sog'lom, baquvvat, ruhan tetik va ma'naviy jihatdan yetuk qilib tarbiyalash, o'qituvchilarning oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'ymoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining bilimlariga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, boshlang'ich ta'lim yosh avlodning kelajakdagi egallagan bilimlarining poydevori hisoblanadi. O'quvchilarning kelajakda kim bo'lib yetishishlari ham ularning dastlabki bilimlari va qiziqishlari orqali kelib chiqadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish, yozishni o'rganibgina qolmay, balki, mustaqil fikrlashi, faollik darajasi, o'z ustida yanada ko'proq ishlab, kelajakda mustaqillikni rivojlantirishi va bilimlarni mukammal egallashi uchun o'qituvchilar ta'lim jarayoniga muhim bosqich sifatida yondashmoqdalar. Ta'lim tizimida qadimda individual tarzda o'qitish yo'lga qo'yilgan edi.

Chex pedagogi Yan Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf - dars tizimida o'qitishni olib borishni tavsiya etdi va mazkur metodning "Sinf-dars" metodi deb nomladi. Dars vaqtida o'tgan darsni takrorlash, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar beradi.

Bolalarni qanday o'qitishda sharq allomlarini ham alohida tavsiyalari mavjud.

Misol uchun Abu Nasr Farobiy ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikkala usul ham insonni har tomonlama kamolga yetkazish maqsadini ilgari suradi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda sifat so'z tukumini o'rganilishi yuzasidan bir qator ilmiy maqolalar hamda ilmiy dissertatsiyalar yozib borilmoqda. Xususan, D.Sayfuddinova "Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitishda muammoli ta'lim texnologiyalari", F.Yakubova "Sifat so'z turkumi modulini o'qitishga doir interfaol metodlar va ularning samarali jihatlari", N. Mirzahamidova "Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rgatish texnologiyasi" mavzusidagi ilmiy maqolalar, G.muqimovaning "Hozirgi O'zbek adabiy tilida sifatlarning semantik-funksional xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasi, yozilgan. Yuqoridagi ilmiy maqolalarda hamda dissertatsiyalarda sifat so'z turkumining ichki xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shunga qaramay boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'qitilishida sifatning qanday o'qitilishi, unni o'qilishida yuqori pedagogik texnologiyalarning o'rnini ham muhim hisoblanadi. [Shuni nazarda tutib boshlang'ich sinflarda yangicha metodlar asosida sifatni o'qitilishi o'ta dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism.

Yurtimizda hozirgi kunda darsni tashkil qilishda yangicha qarashlar yuzaga kelmoqda. Bunda an'anaviy darslarning o'rniga noan'anaviy darslarni tashkil qilish muhim bo'lib kelmoqda. Bunga sabab ta'lim tizimidagi yangicha pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llashdan iboratdir.

Metod so'zi yunoncha "metodos" "yo'l" so'zidan olinga bo'lib, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Metod umumiy ma'noda maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga soladigan faoliyatdir.

"Ko'rgazmalilik metodi" turli ko'rgazmali vositalar yordamida amalga oshiriladi. Yangi so'zlarni ongli va puxta o'zlashtirish ko'rgazmalilikni taqazo etadi. Bunda turli xil rasmlar, buyumlar, jadvallar yoki boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm, telelavhalardan, multimedia vositalaridan foydalaniladi.

Ta'limiy didaktik o'yinlardan ko'proq amaliy mashg'ulotlardan foydalaniladi. O'yin, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari faoliyatida muhim o'rinni egallaydi. O'yin o'quvchilarning ijodiy tafakkurni o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini osonlashtirishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi.

O'quvchilar maktabdagi ilk kunlaridan boshlab, boshlang'ich sinfni tamomlagunlariga qadar, shaxs va narsalarning belgisini bildiruvchi so'z turkumi sifatning, leksi va grammatik ma'nolarini ona tili fan dasturi hajmida o'rganadilar. O'quvchilarning ongini va dunyoqarashini o'stirish, ularni shunchaki tinglovchidan, o'z fikrini aniq bayon eta oladigan ishtirokchiga aylantirish muhim masala hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga savod o'rgatish paytida o'qituvchining "Dokamiz qanday rangda?", "Olmaning ta'mi qanday?", "Xonamizning hajmi qanday?" kabi savollari orqali belgi bildiradigan so'zlarni ma'nolarini amaliy tomonlama o'zlashtirib boradilar. Mazkur bilimlar bevosita o'qituvchi va o'quvchi

o'rtasida savol-javob metodi asosida amalga oshiriladi. Mazkur metod o'quvchini ko'p o'ylashga hamda o'z fikrini oshib borishiga ko'mak beradi. "Savol-javob" metodi orqali ona tili va o'qish darslari orqali o'quvchilarning nutqi ko'plab yangi sifatlar bilan boyitilib boriladi. Nafaqat bu darslar balki, qolgan dars jarayonlarida ham sifat bilan bo'g'liq bilimlarni mustahkamlab, yangi so'zlarni o'zlashtirib borishadi. Sifat so'z turkumi o'quvchilarning nutqini va tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Mazkur metodda savol-javoblar tezkorlik bilan amalga oshirilishi kerak. Sifat so'z turkumi narsa va hodisalarning aniq tasvirini anglash va ifodalashga yordam beradi. Bu orqali o'quvchilarni ijodiy matn tuzishga o'rgatish, fikrini aniqlashtirish hamda nutqining ta'sirchanligini oshirish amalga oshiriladi.

Sifat so'z turkumini o'qitishda "Zig-zag" metodi ham samarali metod hisoblanadi. "Zig-zag" metodining asosiy maqsadi o'quvchilarning to'g'ri va ravon sifatni topishga va ularning xususiyatlarini anglashga ko'mak beradi. Ushbu intellektual o'yin quyidagich amalga oshiriladi. Ushbu metodda sifatlar ko'p qo'llanilgan matn tanlanib olinadi. Tanlangan matnni bolalarga "zig-zag" usulida o'qitiladi. Keyin sifatlar tushirib qoldiriladi, so'ngra sifatlar joyiga qo'yilib, o'qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko'rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so'zlardan foydalanilgani tushuntiriladi.

Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumi o'rgatish jarayoni ushbu so'z turkumining lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat so'z turkumi predmetning belgisini bildiradi va ushbu belgiga asoslanib, sifat so'z turkumi quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Rang-tusni bildiradigan sifatlar (rang-tus sifatleri): *qizil, sariq, yashil, oq*.
2. Predmetning hajmini bildiradigan sifatlar (hajm, o'lchov sifatleri): *qisqa, tor, keng*.
3. Shakl-ko'rinish ma'nosini bildiradigan sifatlar: *qiyshiq, do'ng*.
4. Ma'za-ta'm sifatleri: *shirin, achchiq, nordon*.
5. Xarakter-xususiyat sifatleri; *yaxshi, yomon, samimiy, jahldor*.
6. Hid sifatleri: *hush bo'y, badbo'y*.
7. Makon-zamon sifatleri (bu sifatlar payt va o'ringa qarab aniqlanadi): *hozir, yozgi, kechki*. Holat ma'nosini bildiradigan sifatlar. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo'ladi:

1) psixik holatni ifodalaydi: *xursand, hafa, shod, kasal, injiq*.

2) Tabiiy holatni ifodalaydi: *yosh, qari, keksa*.¹⁵

Sifat so'z turkumining o'rganish jarayonidagi yagona talab uni ot so'z turkumi bilan bog'lab o'rganishdir. Shuning uchun o'quvchiga birinchi sinfdanoq butun e'tibor sifat so'z turkumini otga bog'lashga qaratilishi zarur. O'quvchilar buning natijasida ot so'z turkumi va sifat so'z turkumidan tarkib topgan so'z birikmasi tuzishni o'rganadilar. Lekin bu davrda "so'z turkumi" atamasi ishlatilmaydi. Keyingi bosqichlarda bu tushunchaga xos bo'lgan xususiyatlar chuqurlashib, aniqlashib boradi.

Sifat so'z turkumini o'rgatishda rangli rasmlar, turli o'yinchoqlar, sun'iy yoki haqiqiy mevalardan ham foydalanish mumkin. Bu jarayon o'quvchilardagi sifat bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni amalda qo'llay olish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Boshlang'ich

¹⁵ M. Hamroyev, D. Muhammedova, D. Shodmonqulova, Sh. Yo'ldosheva. TOSHKENT "IQTISOD-MOLIYA" 2007. 102-bet.

sinflarda sifat soʻz turkumini oʻqitishda ogʻzaki bayon qilish, koʻrgazmalilik, taʼlimiy oʻyinlar va noanʼanaviy taʼlim metodlaridan foydalaniladi.

Oʻquvchilarning kundalik hayot tarzlarini orqali quyidagi savollar yordamida ularning ongida sifat soʻz turkumi haqidagi egallagan bilim va koʻnikmalari shakllantirish mumkin. Misol tarzida oʻquvchilardan oʻzlari haqida gapirib berishlarini, fazilatlarini sanab berishlarini, yaxshi va yomon odatlarini aytib berishlarini soʻrash mumkin. Bu orqali oʻquvchilarda xil-xususiyat sifatlari shakllanadi. Shuningdek, oʻquvchilar oʻrtasida doʻstlarini yaqindan bilib olish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Shuningdek, oʻzbek xalq maqollari orqali ham sifat soʻz turkumini oʻqitish mumkin. Bu jarayonda ham maqollar yod olinadi hamda sifat soʻz turkumi haqida bilimlarga ega boʻladi. Ushbu jarayonda bolalarning predmetlarning belgisini aniqlash bilan birga ularning xususiyatlari hamda turli qobiliyatlarini oshirishga koʻmak beradi.

Sifat soʻz turkumini oʻrganishda qoʻllaniladigan maqollar:

1. *Bepul (sifat) bozorga borguncha,
Kafansiz (sifat) mozorga bor.*
2. *Yirtiq (sifat) toʻnni it qopar.*
3. *Yaxshi (sifat) gap bilan ilon inidan chiqar,
Yomon (sifat) gap bilan qilinch qinidan.*
4. *Ish ishtaha ochar,
Dangasa (sifat) ishdan qochar.*
5. *Yolgʻiz (sifat) otning changi chiqmas,
Changi chiqsa ham dongʻi chiqmas.*
6. *Kambagʻal (sifat) boʻlsang, koʻchib koʻr,
Boy (sifat) boʻlsang oʻlib.*
7. *Kambagʻalning (sifat) ayroni oʻziga totli.*
8. *Boyning moli ardoqli, (sifat) yoʻqning joni.*¹⁶

Koʻrishimiz mumkinki, boshlangʻich sinflarda sifat soʻz turkumini oʻqitilishida metodik yondashuvlarning alohida oʻrni mavjud. Yuqoridagi metodlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, yangicha yondashuvlar orqali sifat soʻz turkumini maʼno guruhlarini bolalar qisqa muddatda mukammal egallashga erishadi. Ayniqsa, maqollar bilan ishlanganda bolalarda taʼlimiy hamda tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan bilimlar yanada oshadi. Bolalar tafakkurida dunyoviy bilimlar yanada yuksaladi. Bugungi kunda taʼlim tizimini tashkil qilishning asl maqsadi ham shudir.

Xulosa

Oʻzbek tilidagi har bir ibratli soʻz yoki maqollar har sohada qoʻl keladi. Yuqorida sifat soʻz turkumini qanday oʻqitish haqida maʼlumotlar berib oʻtildi. Sifat soʻz turkumini oʻquvchilarga maqollar, turli xil metodlar orqali ham oson tarzda oʻqitish mumkin. Bunga misol tarzda yuqorida bir nechta metodlar haqida qisqacha maʼlumot berib oʻtildi. Bundan tashqari, oʻqituvchilar tomonidan ham boshqa metodlarga oʻzgartirish kiritib, oʻzlari uchun

¹⁶ Ergashova Mehriniso Husniddin qizi Jizzax davlat pedagogika universiteti

qulay shaklga keltirishlari mumkin. Lekin har qanday metodni o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki tanlangan metod yoki biror bir ta'limiy didaktik o'yinlar, o'quvchilar yoshiga va dars mavzulariga mos bo'lishi lozim. Jumladan sifat so'z turkumiga ham mos bo'lishi lozim. Chunki, asosiy maqsad, o'quvchilarning sifat haqida bilim olishlari bo'lgan bir paytda, ularni boshqa bir mavzuga chalg'itib, o'qituvchi o'z ishini qiyinlashtirmasligi lozim. Shunday ekan boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumining o'qitilishi asosan, o'quvchilarni so'z boyligini oshiradi, ular o'zaro munosabatlarda so'zlarni to'g'ri qo'llay olishiga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda nafaqat sifat so'z turkumini, balki, boshqa mavzu va fanlarni ham mukammal o'qitish mumkin. Sababi boshlang'ich ta'limdagi har bir mavzu, har bir o'tilayotgan dars, o'quvchilarning kelajakda o'z o'rnini egallashida yetakchi vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shabatova Rabig'a Janasbay qizi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida so'z turkumlarini o'rgatishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi. Journal of Advanced Research and Stability .www.sciencebox.uz/
2. Hozirgi ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish. azkurs.org.
3. 20. Kitob haqida maqollar – internet say
4. Kuralova M.A. Boshlang'ich sinflarda "sifat" so'z Kuralova M.A. Boshlang'ich sinflarda "sifat" so'z turkumi ustida ishlashning mazmuni
5. B.X.Xodjayev . Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. "Sano-standart" nashriyoti Toshkent-2017 92-bet.
6. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. Toshkent
7. Umumiy pedagogika Toshkent 2018 368-b. 429-b.